



# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG‘ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-APREL  
OYLARI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**  
**[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**

## Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 327,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 109,8% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko‘rsatkichlari o‘shish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 782,7 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.



2024-yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini

*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*


### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **10 499,2** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **92,7 %** ni, tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI, %da



Ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



### Yanvar-aprel

2022-y	20,3 mlrd. soʻm
2023-y	19,1 mlrd. soʻm
2024-y	35,6 mlrd. soʻm

### FHI, %da

2022-y	74,4%
2023-y	95,2%
2024-y	130,9%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 499,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,7 % ini tashkil etdi.

### Yanvar-aprel

2022-y.	7 778,9 mlrd. soʻm
2023-y.	8 580,9 mlrd. soʻm
2024-y	10 499,2 mlrd. soʻm

### FHI, %da

2022-y.	105,8%
2023-y.	106,6%
2024-y	92,7%





## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Klinker sement
2024	84.6	87.3	88.4
2023	152.4	170.5	37.4
2022	86.3	82.8	46.3
	O'simlik yog'i (tozalangan)	Portlandsement	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2024	34.4	85.5	123.5
2023	87.6	73.3	71.7
2022	45.0	85.6	88.7
	Neft bitumi	Aroq ming litr (100% spirt)	Uzum vinosi
2024	62.8	52.9	3.4 m
2023	5.8 m.	138.4	76.7
2022	20.7	49.8	71.3
	Karbamid	Paxta chigiti	Paxta linti
2024	83.6	87.1	82.6
2023	114.7	118.1	111.6
2022	66.3	164.3	155.9

2024-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 101,8 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 12,7% ga kamaygan), 123,7 ming tonna dizel yoqilg'isi (15,4 % ga kamaygan), 43,0 ming tonna kalava ip mahsulotlari (5,5% ga kamaygan) hamda 4028,9 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (77,6% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.






## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	116,6	101,8	-14,8
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	54,2	91,7	-37,5
Paxta chigiti, ming t.	46,4	47,4	1,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.	4,2	1,4	-2,8

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,8 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,3%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 39,7% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,6% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,0 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 %ni (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 13,2 % (10,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 25,0% (20,1%) va quyi texnologiyalisi – 54,8% (60,8%)ni tashkil etdi.




## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 48,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 97,7 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 47,0 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 86,6 % ga koʻpaydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,9 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 1 246,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,7 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1505,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,5 % ni tashkil etgan.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 23,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 31,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-aprel oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 183,1 % ni tashkil etgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,7 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3233,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 90,9 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,0 %, fizik hajm indeksi 117,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 736,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 128,4 % ni tashkil etgan.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,7 % ni, fizik hajm indeksi 88,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 806,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,0 % ni fizik hajm indeksi esa 112,7 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,5 % ni, fizik hajm indeksi 124,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 581,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni fizik hajm indeksi esa 69,5 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 % ni, fizik hajm indeksi 178,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 562,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni fizik hajm indeksi esa 155,5 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 149,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 118,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni fizik hajm indeksi esa 178,6 % ni tashkil etgan.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 127,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 385,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni fizik hajm indeksi esa 136,2 % ni tashkil etgan.



### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 33,0% ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 416,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 120,0 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 653,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ini) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 225,2 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	106,0	106,2	0,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	696,7	435,8	-260,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 138,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,4	12,1	6,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,5	10,8	4,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,1 mlrd. so'm yoki 6,7 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,8 mlrd. so'm va 87,8 %ga ko'paygan.


## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3225,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 28,5 %ni tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da



### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da




## Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoatning to'rtta texnologik tarkibi mavjud bo'lib, ular birgalashib sanoat ishlab chiqarishining asosiy quvvati hisoblanadi.

2024-yil yanvar-aprel oylarida texnologik tarkib bo'yicha quyidagi ishlab chiqarish hajmlari amalga oshirilgan.

### 2024-yil yanvar-aprel




### 2023-yil yanvar-aprel




**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi**  
**2024-yilning yanvar-aprel oylarida**  
*jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5308,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,9 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

*Jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*



*Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)*






2024-yil 1-may holatiga

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12 559** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 6788 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2024-yil yanvar-aprel oylarida 510 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar



### Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

